

TEONIM XUSUSIYATLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA SINONIMLIK VA ANTONIMLIK MUNOSABATLAR

Mirzayeva Mashxura,

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada teonim (ilohiy nomlar) ishtirok etgan frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari, xususan, ularning sinonimik va antonimik munosabatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Teonim komponentli iboralar xalq tafakkuri, diniy qarashlar va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular tilning obrazlilik darajasini oshiradi. Tadqiqotda o'zbek tilidagi diniy frazeologizmlar asosida sinonimiya va antonimiya hodisalari yoritilib, ularning nutqdagi funksional ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: teonim, frazeologik birlik, sinonimiya, antonimiya, semantika, diniy leksika, tilshunoslik.

Abstract. This article examines the semantic features of phraseological units containing theonyms (divine names), with a particular focus on their synonymic and antonymic relationships. Phraseological expressions with theonymic components are closely connected with people's worldview, religious beliefs, and cultural values, enhancing the figurative richness of language. The study analyzes synonymy and antonymy in Uzbek religious phraseological units and reveals their functional role in speech.

Keywords: theonym, phraseological unit, synonymy, antonymy, semantics, religious vocabulary, linguistics.

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантические особенности фразеологических единиц с теонимами (божественными именами), в частности их синонимические и антонимические отношения. Фразеологизмы с теонимическим компонентом тесно связаны с мировоззрением народа, религиозными взглядами и культурными ценностями, усиливая образность языка. В исследовании на материале узбекских религиозных фразеологизмов раскрываются явления синонимии и антонимии, а также их функциональная роль в речи.

Ключевые слова: теоним, фразеологическая единица, синонимия, антонимия, семантика, религиозная лексика, языкознание.

Kirish. Tilshunoslikda frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va e'tiqodini aks ettiruvchi muhim vositalardan biridir. Ayniqsa, teonim xususiyatli frazeologizmlar — ya'ni tarkibida ilohiy nomlar (Alloh, Xudo, Tangri va boshqalar) ishtirok etgan iboralar — o'zining chuqur semantik va madaniy qatlamiga ega. Bunday birliklar ko'pincha insonning ruhiy holatini, ishonch-e'tiqodini yoki baholovchi munosabatini ifodalaydi.

Metodologiya. Semantik tahlil metodi — frazeologik birliklarning ma'no xususiyatlarini aniqlashda;

Taqqoslash metodi — sinonimik va antonimik birliklarni solishtirishda;

Kontekstual tahlil — iboralarning nutqdagi funksiyasini ochishda;

Tasniflash metodi — teonim birliklarni leksik-semantik guruhlariga ajratishda.

Material sifatida Tohir Malikning "Alvido bolalik" qissasi, "Nomus" hikoyasidan olindi.

Natijalar. Teonim xususiyatli frazeologik birliklarning mohiyati. Teonim komponentli frazeologizmlar diniy tushunchalar asosida shakllangan bo'lib, ular

ko‘pincha metaforik va ramziy ma‘nolarni ifodalaydi. Masalan: “Xudo xohlasa”, “Alloh asrasin”, “Tangri yor bo‘lsin” kabi iboralar insonning ishonch va umid holatini bildiradi.

Sinonimik munosabatlar. Sinonimiya — bir-biriga yaqin yoki o‘xshash ma‘noga ega bo‘lgan birliklar o‘rtasidagi munosabatdir. Teonim frazeologizmlarda bu hodisa quyidagicha namoyon bo‘ladi:

“Xudo xohlasa” — “Alloh nasib etsa”

“Tangri yor bo‘lsin” — “Alloh madadkor bo‘lsin”

“Xudo saqlasin” — “Alloh asrasin”

Antonimik munosabatlar. Antonimiya qarama-qarshi ma‘nolarni ifodalovchi birliklar o‘rtasidagi munosabatni anglatadi. Teonim frazeologizmlarda antonimiya ko‘pincha ijobiy va salbiy baho orqali yuzaga chiqadi:

“Alloh rahmat qilsin” ↔ “Xudo jazosini berdi”

“Tangri yor bo‘lsin” ↔ “Xudo yuz o‘girdi”

“Alloh baraka bersin” ↔ “Baraka topmadi”

Bu yerda antonimiya ko‘proq kontekstual xarakterga ega.

Funksional-uslubiy xususiyatlar. Teonim frazeologik birliklar asosan og‘zaki nutqda, badiiy adabiyotda va diniy matnlarda faol qo‘llanadi. Ular nutqqa emotsional-ekspressiv rang beradi, milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalaydi.

Taniqli tilshunos olim A.E.Mamatov frazeologik birliklarga tor va keng ma‘noda qarab, quyidagicha izoh bergan: “Ular qanday til birliklari deb tasnif qilinishidan qat’i nazar, aforizm, maqol yoki matalmi to‘g‘ri so‘zlashuv formulalarimi, qanotli so‘zlarmi, xullas, agar ular frazeologizmning biz bergan ta’rifiga mos tushsa, undagi talablarni bajarsa, ya’ni tuzilishi jihatdan so‘z birikmasi yoki gapga teng bo‘lgan, obrazli, umumlashgan ma‘no anglatadigan, leksemalari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma‘noga ega bo‘lgan, lug‘atlarda qayd etilgan har qanday turg‘un birliklar frazeologik birliklar tarkibiga kiritilishi shart”. Sh.Balli frazeologik birikmalarning leksik-semantik, grammatik va sintaktik yaxlit birliklar ekanligini ta’kidlaydi. U frazeologik semantikani ularning mutloq belgisi deb e’tirof etgan. V.V. Vinogradov, O.S. Axmanova, V.L. Arxangelskiy, Yu.A. Gvozdaryov, A.G. Nazaryan, S.Royzen, Yu.Avalianin, A.Bushiy kabi tilshunoslar frazeologizmlarni semantik hodisa deb hisoblashadi. Frazeologik birliklar tilni yanada jonli va mazmunli qiladi. Bunga ishonch hosil qilish uchun frazeologizmlarning og‘zaki nutqda va badiiy matnlarda keng tarqalganligini aytib o‘tish kerak. Yana shuni aytish joizki, frazeologik birliklarda kishilarni ishontirish, motivatsiya berish darajasi yuqori bo‘ladi. Ma‘no bo‘yoqdorligi o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Frazeologiyani tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlar va boshqa o‘zgarmas turg‘un birikmalarning ishtiroki nutqning jozibadorligini oshiradi, nutq aktining rang-barangligiga xizmat qiladi. Ma’naviyatga bo‘lgan munosabatga ko‘ra teonimlar farqlanadi. Unga ko‘ra musulmon va nomusulmon teonimlar leksikasining ikki semantik kategoriyasi mavjud:

a) musulmon olami dindorlari: *musulmon, muslim-(a), payg‘ambarlar, ustoz (e‘tirofni qabul qiluvchi shaxs), muftiy, shayx (fahriy unvon), imom-xatib, mo‘min, mutallim* va boshqalar;

b) musulmon bo‘lmaganlar: *xristian, nasroniy, ravvin (yahudiylarda ruhiy shaxs), papa, mehrob* kabi semantik kategoriyaga ega bo‘lgan turkumlarni tashkil etadi.

Tadqiqotchi X.S.Xoliqova antroponimlarning tarixiy mifologik ahamiyati va jinsini hisobga olib, 10 ta leksik mavzuviy guruhlariga ajratadi²⁷. Ushbu mavzuviy guruhlarning 2 guruhi poeteonimlarning leksik-tematik guruhiga mansubdir:

a)payg‘ambarlar, afsonaviy diniy qahramonlar ismlarini bildiruvchi antroponimlar: *Odam, Nuh, Sulaymon, Ibrohim* v.b; b)islom payg‘ambarlari, ularning oilasi, xalifalari, imomlari va boshqa islomiy shaxslar: *Muhammad, Ali, Hamza, Umar, Husayn*. Tilshunoslikda teonimik leksika leksik-semantik jihatdan *oxirat – yer osti dunyosi, Jahannam – do‘zax, jannatga eltuvchi ko‘prik – sirot ko‘prigi, qiyomat kuni – nidolashuv kuni, kavsar bulog‘i – jannat manbayi* kabi bir-biriga bog‘liq tushunchalarga mansubligi, dunyo *tug‘ilish, hayot, o‘limdan iborat* ekanligi va shunga o‘xshash boshqa gnoseologik hamda ontologik tushunchalar bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlangan. Tadqiqotchi X.S. Xoliqnazarova badiiy asarlarida uchraydigan teonimlarning strukturaviy-grammatik xususiyatlarini quyidagi leksik-grammatik guruhlariga ajratgan:

1) oddiy so‘zlar: *Xudo, Yazdon, Olloh, Xoliq, Haq, Qul, Tangri;*

2) prefiks va qo‘shimchalar yordamida yasaladigan hosilalar: *Kirdigor, Parvardigor, Xudovand, Olloho* v.b;

3) kompleks komponentlar: *Chohondavor, Chohondor, Chohonodarin;*

4) teonimik iboralar: *Xudo yorlaqasin, Olloh asrasin;*

a) ikki komponentli izofet iboralar: *Xoliqi Akbar; Sohibi Jamol;*

b) uch, to‘rt komponentli izofet iboralar: *Xodovandi Chaxodovari Subhon, Yezidi Dogori Taolo; Subhon Olloh, Subhon Yegam.*

v) bog‘lovchi qo‘shilib tuzilgan so‘z birikmalari: *bor Xudoyi; ol Xudoyi*

d) arab iboralar: *Rab-ul-Olam, Ollohu Akbar, Ilohi;*

5) teonimning olmoshlar yordamida ifodalanishi: *Tu “sen”, Vay “u”, “xesh”, “seni”, Sen, U, Uning; Yolg‘iz uning rahmi kelsin. Hamma ishga qodirsan, Yagonasen!* Ayni shu hodisa o‘zbek va boshqa qardosh tillarga ham xosdir;

6) teonimning son yordamida ifodalanishi: yak *“bir”*. *U bittadir. Yolg‘iz O‘zi bu haqida biladi.* Ushbu gapimizda O‘zi *Tangri* demakdir. O‘zbek tili leksikasida ayniqsa, mumtoz she‘riy matnlarda hozirgacha Xudoni *Sen* olmoshi bilan ko‘rsatish ikki til doirasida umumiylikni bildiradi. Masalan: *Gar kibriyoliq esa Ubaydiy bo‘la olur, Yo Rab, anga Sening soridin bo‘sa kibriyo, dardim ko‘bdur, davo yuq, bergil davo, Rabbano, Dard ahlining ishq aro har dardig‘a darmon Sen.* Ko‘rib turganingizdek *Sen* olmoshi Ollohning nomi o‘rnida Ubaydiy hikmatlarida juda go‘zal tarzda ifodalangan.

Xudo so‘zi Haq va Tangri, Rabbi, Yaratgan, Olloh leksik birliklari bilan rang-barang sinonimlikni tashkil qilgani ta’kidlangan. Masalan, Dunyo uchun g‘am yema, Haqdin o‘zgani dema. Tangriga qil ibodat sahar vaqti ichinda.

O‘zbek tilida shayton leksemali iboralar nutqda ko‘p uchraydi. Tohir Malik asarlarida ham salmoqli qo‘llangan. Masalan “Alvido bolalik” qissasida “...Asror xuddi ertaklardagidek uch yo‘l qarshisiga kelib qolgan. Bir yo‘lning boshida oq shayton turibdi. ...Ikkinchi yo‘lda qora shayton turadi.” Ushbu parchada shayton so‘zi oq va qora sifatlari bilan birikma hosil qilib, o‘quvchining tasavvurida aniqroq gavdalanadi.

Bundan tashqari so‘zlashuv tilida *ajali yetibdi, ajal quvgan* hamda *ajal qayoqdan kelishini bilmaysiz* kabi iboralarni ko‘plab uchramiz. Lekin shunday iboralar ham borki, nutqda *olamdan o‘tibdi* ma’nosini anglatadi. Ya’ni *ajali yetibdi* desa ham bo‘ladi. Masalan: *U kecha kechqurun asfalasofilinga jo‘nagan. Asfalasofilin* shu o‘rinda narigi dunyo demakdir.

Muhokama. Tilda sinonimiya bilan bir qatorda teonimiyada antonimiya kabi tizimli hodisa ham mavjud. Bundan tashqari, enantiosemiya natijasida an’anaviy diniy kontekstlar ta’sirida alohida so‘zlar qarama-qarshi ma’nolarni (*iblis, farishta*) hosil qilgan. Masalan: *jahannam – jannat, farishta – jin, gunoh – savob* va boshqa antonim so‘zlar mavjud. Ushbu so‘zlar asosiy ikkilik qarama-qarshiliklarni, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashni aks ettiruvchi so‘zlar hisoblanadi. Faqat Xudoning raqibi yo‘q. Ammo ba’zi hollarda unga *shayton* qarshilik qiladi. Ammo bu kuchga Olloh qarshi tura oladi. Bundan tashqari, *Odam Ato va Momo Havo* ikkiligi. Ular qarama-qarshi ma’no bildirishiga qaramay, er va xotin sifatida butunni tashkil qiladi. Barcha semantik qarama-qarshiliklarda asosiy invariant qarama-qarshiliklarni kuzatish mumkin. Masalan: yaxshi-yomon, baland-past, o‘ng-chap va boshqalar. Z.B. Yaxyoyeva ilmiy tadqiqot ishida teonim so‘zlarning antonimligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan. “*Jin so‘zi bilan keluvchi leksemalar odatda qorong‘u kuchlarni bildiruvchi so‘zlar hisoblanib, Ollohg qarshi turishni talqin qiladi. Masalan: Iblis, shayton, jin, yovuz ruh, Munkarnakir, Azroil (O‘liklarni narigi dunyoda gunohlarini so‘roq qiluvchi farishtalar)*” kabi nomlanishlarni *Olloh* so‘ziga qarshi leksemalar sifatida toifalagan. Badiiy uslubda yozilgan asarlarda islomiy tilaklarning qo‘llanilishi ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bunday tilaklarga *Tangri kechirsin, iloho joylari jannatda bo‘lsin, Olloh panohida asrasin* kabi birikmalar kiradi. Yoki qo‘rquv (iltijo yoki so‘rash) va hayratni bildiruvchi *Yo tovba!, Yo parvardigor* (O‘tinch ma’nosidagi murojaat so‘zlari). Masalan: *Yo parvardigor! Oxirzamon degani shumikan, mulla Fazliddin?, Yo tovba bu yoqda Samarqand qo‘shni...Uch tomonimizdan yog‘iy bostirib kelibdimi, a?* kabi birliklar ham mavjud. Teonim komponentli frazeologizmlarda muallif idiolekti sifatida frazeologizmning mohiyatan kimga qaratilganligi muhim ahamiyatga ega. Bu borada juda kam tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsada, ma’lum qolip darajasiga olib kelingan konseptlar mavjud. Tadqiqotimizning ushbu qismida bu masalaga atroflicha to‘xtalib o‘tishni lozim bildik.

Xulosa. Teonimiyada xususan, badiiy nutq teonimiyasida estetik baholash mezon mavjud bo‘lib u obyekt yoki hodisaning tashqi xususiyatlarini baholashni o‘z ichiga olgan islomiy iboralaridan iborat. Estetik baholash ikkita katta qismga bo‘lingan bo‘lib, ular ijobiy va salbiy baholash mezonlaridir. Birinchi toifa *Xudo, farishta* va *jannat* komponentlari bilan diniy iboralaridan iborat. Masalan: *farishtadek go‘zal*, *yer yuzidagi jannat*, *Xudoning inoyati (taqdiri) kabilar*. O‘zbek millati ongida *farishta* siymosi insonlarga xush yoqadigan va insonlar tomonidan ijobiy ma‘noda qo‘llaniladigan leksik birlikdir. Arab tilidan ushbu so‘zga ma‘nodosh bo‘lgan *malak* leksemasini ijobiy ma‘no shakllantiruvchi so‘z sifatida iboralar tarkibida uchramiz. *Malak* so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida *farishta* deb ta‘rif berilgan. O‘zbek tilida badiiy adabiyotlarda *mozor* nekronimi bilan iboralarga duch keldik. Masalan: *Agar yana bir marta haqorat qilsang, ikkalangni qo‘shmozor qilaman*. Yuqoridagi misolimizda *qo‘shmozor bo‘lmoq* iborasi qarg‘ish ma‘nosidagi iboradir. Ushbu iborada ma‘no ko‘chishi sodir bo‘lgan va “*o‘lasan*” yoki “*olamni tark etasan*” ma‘nosini anglatadi. *Qo‘sh mozor bo‘lmoq* zamirida ikki kishining birdaniga olamni tark etishi hisoblanadi. Yuqoridagi iboralar baxtli yashash yoki qora niyatni ifodalovchi birliklar bo‘lib, o‘zida ezgulik va yovuzlik freymini mujassamlagan deya olamiz. Biz ham konsept bo‘yicha ishlab, teonim komponentli frazeologizmlarining lingvo-pragmatik xususiyatlarini yoritib berishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алпонова Ш. Диний қарашларнинг коммуникация жараёнига таъсири //«Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари» Республика илмий амалий анжуман материаллари. –Андижон, 2016. – Б.64.
2. Жўраев У., Саиджонов Й. Дунё динлари тарихи. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 176 б.
3. Иброҳимов Н.Ал-Қомус. Арабча-ўзбекча қомусий луғат. –Тошкент, Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 846 б.
4. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. –Тошкент, 2017. – 384 б.
5. Улуқов Н. Экзотик лексика. – Тошкент: Усмон Носир, 2021. – 124 б.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II жилд (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.
7. Умархўжаев М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изохли луғат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2016. – 219 б.
8. Улуқов Н. Ўзбекча диний матнларда экзотик лексика: филол.фан.номз... дисс.автореф. – Тошкент: 1997. – 29 б.
9. Юсупова Ш.Т. Диний матнларнинг услубий-функционал хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док.дисс...автореф. – Фарғона, 2021. – 49 б.
10. Кўзиёев У. Ўзбек тили изохли луғатларидаги ўзлашма сўзлар тадқиқи. Филол.фан.б.ф.док...дисс.автореф. – Фарғона, 2018. – 44 б.